


I. YALPI HUDUDY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 15 910,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.


Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 104,0 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 53,7 foiz), sanoat – 113,8 foiz (11,7 foiz), qurilish – 105,6 foiz (6,0 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 114,7 foiz (6,1 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 113,4 foiz (3,6 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 106,7 foiz (18,9 foiz)ni tashkil qildi.

2021 yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda







YAHM deflyator indeksi 2021 yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 118,3 foizni tashkil etdi.





(foizda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 183,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 foizga o'sdi.





2021 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi





	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2020 yil	2021 yil	
I. YAHM	12 609,1	15 910,6	106,6
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12402,1	15533,5	106,6
 Mahsulotlarga sof soliqlar	207,0	377,1	107,1
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12402,1	15533,5	106,6
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6551,4	8335,4	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2178,0	2753,2	110,3
 sanoat	1261,0	1816,5	113,8

		Mlrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020 yil	2021 yil	
	qurilish	917,0	936,7	105,6
	Xizmatlar	3672,7	4444,9	109,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	727,5	939,9	114,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	458,3	566,1	113,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	2486,9	2938,9	106,7

Iqtisodiy o‘shish sur‘ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


		2020 yil	2021 yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,4	97,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1,6	2,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	52,8	53,7
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	17,6	17,7
	sanoat	10,2	11,7


		2020 yil	2021 yil
	qurilish	7,4	6,0
	Xizmatlar	29,6	28,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	6,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,7	3,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	20,0	18,9

2021 yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 53,7 % ni, sanoat tarmog'i 11,7 % ni, qurilish 6,0 % ni va xizmatlar sohasi 28,6 % ni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
yanvar-sentabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)**







2021 yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 28,6 foizni tashkil qildi, bu esa 2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,0 foiz punktga kamaygan (29,6 foiz). Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ulushi 0,2 foiz punktga ko‘p, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarida 0,1 foiz punktga kamaydi hamda xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar ulushi 1,1 foiz punktga kamaygan.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

2020 yil yanvar-sentabr

2021 yil yanvar-sentabr



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2021 yil yanvar-sentabr oylarida – 6,1 foizni (2020 yil yanvar – sentabr oylarida – 5,9 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,6 foizni (3,7 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 18,9 foizni (20,0 foiz) tashkil etdi.